


## 2019-yilning yanvar - iyul oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar - iyul oylarida Qashqadaryo viloyatida jami 2 681,2 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,2 % ni tashkil etdi.


Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 418,1 mlrd.so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,3 % ga o'sish qayd etildi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa korxonalariga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ularning hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 63,4 % i to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,3 punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 120,1 % ni tashkil etgan holda 1699,1 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,6 % punktga kamayib, 21,0 % ni tashkil etdi va 564,0 mlrd. so'm miqdori qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 88,3 % ni tashkil etdi.

### jami qurilish ishlaridagi ulushi



- Yirik qurilish tashkilotlari
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar
- Norasmiy sektor


### Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi (mlrd. so`m)



Hududlar kesimida qurilish ishlari tarkibida Qarshi shahrining qurilish korxonasi va tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari viloyat bo'yicha jami hajmning 28,0 % ni yoki 752,0 mlrd.so'mni tashkil qildi. Qarshi shahrida "Olimlar ko'chasida yangi yo'l qurilishi" ning foydalanishga topshirilishi, kichik korxonasi va mikrofirmalar tomonidan ko'p qavatli turar-joylarning qurilishi jadal olib borilayotganligi mazkur hududdagi qurilish ishlarining katta hajmi bo'lishini ta'minlamoqda.

Keyingi o'rinlarda esa, jami qurilish ishlarining 11,4 % ni tashkil qilgan holda, Koson tumani bormoqda. Tumanda yirik qurilish korxonalarini tomonidan qidiruv-burg'ulash ishlari amalga oshirilmoqda.

## Hududlarda qurilish ishlarining o'sish suratlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o'sish sur'ati;

Qarshi shahrida (117,7 %) kuzatildi:

- Qarshi shahrida multibrend avtosaloni hamda "**QARSHI AUTOCENTRE**" MCHJ avtoservisining qurilishi hisobiga;

Mirishkor tumani (114,9 %) kuzatildi:

- Qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilishlar hisobiga;


Shahrisabz shahri (114,9 %) kuzatildi:

- Qurilish ishlarining asosiy qismi yirik korxonalar tomonidan bajarilgan qurilishlar hisobiga;

Kitob tumanida (114,8 %) qurilish ishlarining yuqori o'sishiga sabab:

- "**Qarshi conch sement**" xorijiy korxonasi tomonidan sement ishlab chiqaradigan zavod qurilishi hisobiga;

### Hududlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan)



- G'uzor    ● Dehqonobod    ● Qamashi    ● Qarshi t    ● Koson    ● Kitob    ● Mirishkor
- Muborak    ● Nishon    ● Kasbi    ● Chiroqchi    ● Shahrisabz    ● Yakkabog'
- Qarshi sh    ● Shahrisabz sh



Hududlar kesimida jami qurilish ishlaring eng katta qismini Qarshi shahrining (28,0 %) ulushi tashkil qilmoqda. Bunday katta ulushga ega bo'lishi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ko'proq qurilish ishlari bajarganligi bilan izohlanadi.


Keyingi o'rinlarda esa Koson (11,4 %) va Qarshi (9,7 %) tumanlari bormoqda. Jami qurilish ishlaridagi eng past ulushga ega bo'lganlar, Mirishkor (2,4 %) hamda Nishon (2,3 %) tumanlaridir.



## Qurilish ishlari hajmi

	Yirik qurilish tashkilotlari (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar va mikrofirmalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Norasmiy sektor (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>418,1</b>	<b>119,3</b>	<b>1699,1</b>	<b>120,1</b>	<b>564,0</b>	<b>88,3</b>
Qarshi sh	129,4	88,7	573,0	130,0	49,6	96,5
Shahrisabz sh	57,2	2,3 m	55,8	89,9	19,9	72,3
<b>tumanlar:</b>						
G`uzor	6,2	2,9 m	56,8	98,1	32,9	115,5
Dehqonobod	-	-	37,9	3,2 m	31,8	59,4
Qamashi	3,6	-	46,9	76,5	27,2	2,0 m
Qarshi	0,4	10,1	216,4	113,0	44,6	93,5
Koson	170,1	124,2	92,7	109,3	43,9	79,8
Kitob	3,5	125,9	114,7	145,9	85,0	89,5
Mirishkor	-	-	30,1	113,5	33,3	115,6
Muborak	18,9	87,8	99,4	112,1	15,6	116,9
Nishon	-	-	39,6	90,9	21,6	169,8
Kasbi	5,2	3,6 m	49,4	107,5	41,3	92,7
Chiroqchi	-	-	138,2	135,1	60,5	70,6
Shahrisabz	0,4	-	54,9	110,8	15,4	95,1
Yakkabog`	23,2	6,4 m	93,3	135,1	41,4	63,4

### Hududlar kesimida qurilish ishlari



Joriy davrda ham jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va



mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 63,4%ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi quyidagi tumanlarda nisbatan yuqori Qarshi, Shahrisabz tumanlarida va Qarshi shahrida qayd etildi. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng past ulushi esa Shahrisabz shahar hamda Koson tumaniga to'g'ri kelmoqda. Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 21,0%i to'g'ri kelmoqda. Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektorning yuqori ulushi Mirishkor (52,5 %) hamda Dehqonobod (45,7 %) tumanlarida kuzatildi. Eng past ko'rsatkich esa Qarshi shahrida (6,6 %) qayd etildi.

Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 63,4%ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi quyidagi tumanlarda nisbatan yuqori Qarshi, Shahrisabz tumanlarida va Qarshi shahrida qayd etildi. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng past ulushi esa Shahrisabz shahar hamda Koson tumaniga to'g'ri kelmoqda. Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 21,0%i to'g'ri kelmoqda. Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektorning yuqori ulushi Mirishkor (52,5 %) hamda Dehqonobod (45,7 %) tumanlarida kuzatildi. Eng past ko'rsatkich esa Qarshi shahrida (6,6 %) qayd etildi.



# Faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

## Binolar va inshootlarni qurish

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 3,2% ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,8 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yilning shu davridagi ko'rsatkichga nisbatan 13,0% punktga ko'payib, 70,9 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 10,8 % punktga kamayib, 29,2% ni tashkil etdi.

## Fuqarolik obyektlarini qurish


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 40,4 % ni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,2 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 59,6 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 11,3 % punktga ko'paydi.

## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 9,2 % punktga kamaydi va 57,9 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga esa 42,1 % to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 9,2 % punktga ko'paydi.



← 2019 yil


■ Binolar va inshootlarni qurish      ■ Fuqarolik obyektlarini qurish  
 ■ Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



← 2018 yil

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari 1926,6 mlrd.so'mni tashkil qildi. Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 335,5 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,5 % punktga ko'paydi. Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 419,1 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,4 % punktga ko'paydi.

### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan ulushi)



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 2510,6 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 93,6 foizini tashkil qildi. Shu jumladan mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 170,6 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 6,4 foizini tashkil qildi.



**Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi**  
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi**  
**bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:  
Aloqa telefoni:

**A.Isaev**  
**(75) 221-32-47**